

**Demografik
tahlilda ikkilamchi,
ya'ni birlamchi
ma'lumotlar
asosida qayta
ishlangan
(koeffitsiyent,
indeks va hokazo)
ma'lumotlardan
foydalanish
vaziyatga real baho
berish imkonini
beradi. Masalan,
2022-yil Sirdaryo
viloyatida 1764 ta
nikohdan ajrashish
holati qayd etilgan
bo'lib, ushbu
viloyat ajrashishlar
mutlaq sonining
ko'pligi (birlamchi
ma'lumot) bo'yicha
14 ta hudud
ichida 12-o'rinni
egallagan.**

Andijon	4149	3650	3125	3945	5019	870	121,0
Buxoro	1755	1724	1517	2084	2561	806	145,9
Jizzax	1098	1079	1068	1283	1728	630	157,4
Qashqadaryo	1626	1567	2010	2867	3472	1846	213,5
Navoiy	997	942	931	1224	1430	433	143,4
Namangan	2508	2392	2104	3171	4394	1886	175,2
Samarqand	3725	3468	2961	4174	4907	1182	131,7
Surxondaryo	1885	1889	1600	2264	2810	925	149,1
Sirdaryo	1112	1104	1093	1411	1764	652	158,6
Toshkent	3740	3583	2958	4086	5098	1358	136,3
Farg'ona	3070	3192	2841	4295	5445	2375	177,4
Xorazm	1025	1027	1098	1507	2138	1113	208,6
Toshkent sh.	4292	4529	3899	5571	5901	1609	137,5

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-jadvaldan ko'rinadiki, o'tgan besh yil mobaynida (2018–2022-yillar) respublika bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni 16,4 ming kishiga yoki 50,8 foizga ortgan. Tahlil qilinayotgan davrda nikohdan ajrashishlar soni respublikaning barcha hududlarida, xususan, Qashqadaryo (2,1 marta), Xorazm (2,0 marta), Farg'ona (77,4%) va Namangan (75,2%) viloyatlarida yuqori sur'atda o'sgan.

Tahlillarga ko'ra, 2022-yilda nikohdan ajrashishlar soni 2021-yilga nisbatan (23,9%) yuqori sur'atda ko'paygan. Bu davrda hududlar kesimida Xorazm viloyati (41,9%), Qoraqalpog'iston Respublikasi (40,9%), Namangan (38,6%) va Jizzax (34,7%) viloyatlarida eng yuqori o'sish qayd etilgan.

Shuni alohida nazarda tutish kerakki, birlamchi statistik ma'lumotlar (masalan, nikohdan ajrashishlar soni) tadqiq etilayotgan demografik jarayon bo'yicha real vaziyatni aks ettirmaydi. Chunki birlamchi ma'lumotlar statistika organlari tomonidan demografik hodisalarni joriy hisobga olish orqali to'planib, unda demografik jarayonlar kechishining turli omillari va shart-sharoitlari hisobga olinmaydi.

Shuning uchun demografik tahlilda ikkilamchi, ya'ni birlamchi ma'lumotlar asosida qayta ishlangan (koeffitsiyent, indeks va hokazo) ma'lumotlardan foydalanish vaziyatga real baho berish imkonini beradi. Masalan, 2022-yil Sirdaryo viloyatida 1764 ta nikohdan ajrashish holati qayd etilgan bo'lib, ushbu viloyat ajrashishlar mutlaq sonining ko'pligi (birlamchi ma'lumot) bo'yicha 14 ta hudud ichida 12-o'rinni egallagan.

Agar ikkilamchi demografik ma'lumot bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, Sirdaryo viloyatida nikohdan ajrashish koeffitsiyenti 2,0 promilleni, nikohning mustahkamlik ko'rsatkichi 22,8 foizni tashkil etib, nikohdan ajrashishlar soni bo'yicha 14 ta hudud ichida 2-o'rinni tutadi.

Yuqoridagi qiyosiy tahlillardan ko'rinadiki, hududlardagi demografik vaziyatga real baho berish uchun ikkilamchi demografik ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xalqaro amaliyotda nikohdan ajrashish darajasiga baho berishda, asosan, nikohdan ajrashishning umumiy koeffitsiyenti (har 1000 aholiga to'g'ri keladigan ajrashishlar soni) va nikohning mustahkamlik ko'rsatkichidan (har 100 nafar tuzilgan nikohga to'g'ri keladigan ajrashishlar soni) keng foydalaniladi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, respublikada nikohdan ajrashish koeffitsiyenti 2018-yildagi 1,0 promille 2022-yilga kelib 1,4 promillegacha ortgan (2-jadval).

2-jadvaldan ko'rinib turganidek, respublikamizda nikohdan ajrashishning eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahri (2,0%), shuningdek, Sirdaryo (2,0%) va Toshkent (1,7%) viloyatlarida qayd etilgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida nikohdan ajrashishlar soni* (1000 aholiga)

Hududlar	Y i l l a r					2022-yilda 2018-yilga nisbatan o'zgarish (+,-)
	2018	2019	2020	2021	2022	
O'zbekiston Respublikasi	1,0	0,9	0,8	1,1	1,4	0,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,7	0,7	0,5	0,8	1,1	0,4
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1,4	1,2	1,0	1,2	1,5	0,1
Buxoro	0,9	0,9	0,8	1,1	1,3	0,4
Jizzax	0,8	0,8	0,8	0,9	1,2	0,4
Qashqadaryo	0,5	0,5	0,6	0,9	1,0	0,5
Navoiy	1,0	1,0	0,9	1,2	1,4	0,4
Namangan	0,9	0,9	0,7	1,1	1,5	0,6
Samarqand	1,0	0,9	0,8	1,0	1,2	0,2
Surxondaryo	0,7	0,7	0,6	0,8	1,0	0,3
Sirdaryo	1,4	1,3	1,3	1,6	2,0	0,6
Toshkent	1,3	1,2	1,0	1,4	1,7	0,4
Farg'ona	0,8	0,9	0,8	1,1	1,4	0,6
Xorazm	0,6	0,6	0,6	0,8	1,1	0,5
Toshkent sh.	1,7	1,8	1,5	2,0	2,0	0,3

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu hududlarda nikohdan ajrashishlar salmog'ining yuqoriligi aholining milliy tarkibi turli-tumanligi bilan ham izohlanadi. Shahar joylarda Yevropa xalqlarining hayot tarzi va ajrashish ko'rsatkichlari mahalliy xalqlarga nisbatan yuqori bo'lishi barchaga ma'lum. O'zbek, tojik, qirg'iz va turkman kabi musulmon millatiga mansub xalqlarda nikohning bekor qilinish hollari yevropa xalqlariga nisbatan kamroq uchraydi. Binobarin, shu o'rinda aytish joizki, oxirgi yillarda yevropa xalqlariga mansub aholi ulushi juda keskin kamayib ketdi, lekin ularning ajrashish darajasiga qo'shayotgan ulushi sezilarli emas.

Xalqaro amaliyotda nikohdan ajrashish darajasiga baho berishda, asosan, nikohdan ajrashishning umumiy koeffitsiyenti (har 1000 aholiga to'g'ri keladigan ajrashishlar soni) va nikohning mustahkamlik ko'rsatkichidan (har 100 nafar tuzilgan nikohga to'g'ri keladigan ajrashishlar soni) keng foydalaniladi.


So‘nggi yillarda aholisi, asosan, tub mahalliy millatlardan tarkib topgan holda, diniy urf-odatlariga qattiq amal qilinadigan Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida ham nikohdan ajrashish holatlari keskin ortib bormoqda.

Ming afsuslar bo‘lsinki, endilikda O‘rta Osiyo xalqlarida ham ajrashish hodisasi tobora ko‘payib bormoqda.

O‘zbekiston aholisining 90-98 foizi mahalliy millat vakillaridan iborat, demografik o‘shish yuqori bo‘lgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari aholisida ajrashish ko‘rsatkichlari ancha past ekanligini ko‘rish mumkin. Aholisi, asosan, o‘zbek va boshqa mahalliy millatlardan iborat bo‘lgan ushbu hududlarda nikohdan ajrashish holatlarining nisbatan kam qismida, bir tomondan, qadriyatlarining ta‘siri bo‘lsa, ikkinchi tomondan, oilalarning hamon serfarzandligi va urf-odatlarga o‘ta qat‘iy amal qilinadi.

So‘nggi yillarda aholisi, asosan, tub mahalliy millatlardan tarkib topgan holda, diniy urf-odatlarga qattiq amal qilinadigan Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida ham nikohdan ajrashish holatlari keskin ortib bormoqda.

Aytish joizki, O‘zbekistonda boshqa davlatlarga qaraganda nikohdan ajrashish ko‘rsatkichlari juda past hisoblanadi. Masalan, aksariyat Yevropa mamlakatlari va Rossiyada nikohlarning yarmidan ortig‘i ajrashish bilan yakun topadi (1-rasm).



1-rasm. Dunyoning ba‘zi mamlakatlarida har 100 ta tuzilgan nikohga to‘g‘ri keladigan ajrashishlar soni

1-rasmdan ko‘rinadiki, har 100 ta qayd etilgan nikohdan Ispaniyada – 66, Finlyandiyada – 61, Fransiya – 58, Rossiyada – 51, Germaniyada – 48, AQShda – 46, Buyuk Britaniya – 45 foizi ajrashish bilan yakunlangan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida nikohdan ajrashish ko‘rsatkichlari Yevropa mamlakatlariga qaraganda bir muncha past hisoblanadi. Jumladan, bu ko‘rsatkich Qirg‘izistonda – 23,7, Tojikistonda – 19,9, O‘zbekistonda – 16,4, Qozog‘istonda esa 13,8 foizni tashkil etadi.

Hududlar kesimida nikohning mustahkamlik ko‘rsatkichi Toshkent shahri (26,3%), Sirdaryo (22,8%) va Toshkent (22,0%) viloyatlarida past hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududlarida har 100 ta tuzilgan nikohga to'g'ri keladigan ajrashishlar soni

Nikohdan ajrashishlarning eng yuqori ulushi erkaklarda 30-34 yoshni, ayollarda esa 30 yoshgachani tashkil etadi (3-jadval). Odatda, bu yoshdagi er-xotin bitta yoki ikkita farzandga ega bo'ladi. Aksariyat hollarda er-xotin ajrashgach, farzandlar, asosan, onasi bilan qolishi odatiy holga aylanib qolgan va bu hamon davom etmoqda.

3-jadval

O'zbekistonda nikohdan ajrashgan er-xotinning yosh guruhiga ko'ra taqsimlanishi (%)*

Jami erkaklar	2010-yil	2018-yil	2020-yil	2022-yil
	100,0	100,0	100,0	100,0
<i>Shundan:</i>				
30 yoshgacha	33,0	36,9	28,6	22,1
30-34 yosh	26,2	24,9	27,4	26,3
35-39 yosh	17,5	15,7	15,4	18,1
40-49 yosh	15,5	14,7	13,7	17,4
50 va undan yuqori yosh	7,8	7,8	14,9	16,1
Jami ayollar	100,0	100,0	100,0	100,0
<i>Shundan:</i>				
30 yoshgacha	49,4	52,2	47,6	42,2
30-34 yosh	21,5	20,0	18,6	20,9
35-39 yosh	12,9	11,5	10,6	14,6
40-49 yosh	11,1	11,1	9,3	12,3
50 va undan yuqori yosh	5,1	5,2	13,9	10,0

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Nikohdan ajrashishlarning eng yuqori ulushi erkaklarda 30-34 yoshni, ayollarda esa 30 yoshgachani tashkil etadi (3-jadval). Odatda, bu yoshdagi er-xotin bitta yoki ikkita farzandga ega bo'ladi. Aksariyat hollarda er-xotin ajrashgach, farzandlar, asosan, onasi bilan qolishi odatiy holga aylanib qolgan va bu hamon davom etmoqda.

Tahlil qilinayotgan davrda 30 yoshgacha bo'lgan erkaklar orasida nikohdan ajrashishlar salmog'i qisqargan, ya'ni 30 va undan katta yoshdagi erkaklarda, aksincha, ortgan. Ayollar o'rtasida esa 30 yoshgacha bo'lgan va 30-34 yoshdagilarda nikohdan ajrashishlar salmog'i, aksincha, kamaygan. 35-29 hamda 40 va undan katta yoshdagi ayollar orasida ortgan. Eridan ajralgan bolali ayollarning yana turmush qurish imkoniyati kamligi aholi orasida to'liqsiz oilalarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Beva ayollarning nikohga qayta kirishi jami qayd etilgan nikohlarning 0,5 foizini, erkaklarda esa 1,3 foizni tashkil etadi.

O'zbekistonda nikohdan ajrashishlarning asosiy qismi (60,5%) nikohning dastlabki 10 yilgacha bo'lgan davrida qayd etiladi (4-jadval).

Nikohdan ajralganlarning uchdan birini yosh oilalar, ya'ni 1–4 yil oldin tuzilgan er-xotinlik ittifoqi tashkil etadi. Aholining nikohda turish davriga ko'ra ajrashish ko'rsatkichi 2022-yilda 2018-yilga nisbatan quyidagicha o'zgargan: 1–4 yil orasida ajralganlar salmog'i 31,9 foizdan 29,8 foizga, 5-9 yilgacha yashaganlardan ajrashishlar esa 29,8 foizdan 26,8 foizga kamaygan.

Tahlil qilinayotgan davrda 10–14 yil ichida nikohdan ajrashgan oilalar soni yuqori sur'atda (2,0 barobar) o'sgan hamda jami ajrashishlar tarkibidagi ulushi 13,3 foizdan 18,2 foizga ortgan.

4-jadval

Nikohdan ajralganlarning nikoh davomiyligi bo'yicha taqsimlanishi*

Nikoh davomiyligi	Yillar					2022-yilda 2018-yilga nisbatan	
	2018	2019	2020	2021	2022	+, -	%
Jami	32 326	31 389	28 233	39 349	48 733	16 407	150,8
<i>shundan:</i>							
1 yilgacha	1 266	1 263	1 433	2 092	1 880	614	148,5
1–4 yil	10 327	10 134	9 665	12 934	14 528	4 201	140,7
5–9 yil	9 621	9 221	8 065	10 724	13 081	3 460	136,0
10–14 yil	4 289	4 445	4 108	6 344	8 884	4 595	207,1
15–19 yil	2 599	2 348	1 926	2 869	4 190	1 591	161,2
20 yil va undan ortiq	4 224	3 978	3 036	4 386	6 170	1 946	146,1

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shuningdek, 15–19 yil davomida birga yashaganlar orasida ajrashgan oilalar salmog'i 8,0 foizdan 8,6 foizga ortgan. 20 yil va undan ortiq muddat birga yashab ajrashganlar ulushi 12,7 foizni tashkil etgan. *O'zaro nikohdagi aholining qancha ko'p birga yashaganiga qaramay, ularda ajrashish hodisasi tobora ortib borayotgani alohida tadqiqotlar amalga oshirilishini taqozo etmoqda.*

Nikohdan ajrashganlarning ma'lumot darajasi tahlil qilinganda, tugallanmagan oliy ma'lumotlilar o'rtasidagi ajrimlar soni yuqori sur'atda o'sganligini ko'rishimiz mumkin (5-jadval).

5-jadval

Nikohdan ajrashganlarning ma'lumot darajasi*

Ma'lumoti	2020-yil		2022-yil		2022-yilda 2020-yilga nisbatan o'zgarishi, %	
	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar
oliy	3553	2178	4 399	3 540	123,8	162,5
tugallanmagan oliy	241	410	479	1 102	198,8	268,8
o'rta maxsus	11027	12190	16 089	21 276	145,9	174,5
umumiy o'rta	6777	4579	10 304	10 739	152,0	234,5
noma'lum	6635	8876	17 462	12 076	263,2	136,1

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

5-jadvaldan ko'rinadiki, o'tgan uch yil (2020–2022-yillar) mobaynida nikohdan ajrashishlar soni tugallanmagan oliy ma'lumotli erkaklarda 98,9 foizga, ayollarda esa 2,6 martaga ortgan. Bu esa ta'lim, ayniqsa oliy ta'lim muassasalarida oila institutini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Shuningdek, bu davrda oliy, o'rta maxsus va o'rta ma'lumotlilarda ham nikohdan ajrashishlar soni ortgan.

Respublika bo'yicha jami nikohdan ajrashganlarning qariyb uchdan ikki qismida (65,8%) er-xotin o'rtasida voyaga yetmagan farzandi bo'lgan (6-jadval).

6-jadval

Nikohdan ajraluvchilarning farzandlari soni to'g'risida ma'lumot*

Farzandlar soni	Yillar					2022-yilda 2018-yilga nisbatan o'zgarishi	
	2018	2019	2020	2021	2022	+, -	%
Farzandsiz nikohdan ajrashishlar soni	14961	14909	14072	19804	16644	1683	111,2
16 yoshgacha farzand bilan nikohdan ajrashishlar soni	17365	16480	14161	19545	32089	14724	184,8
<i>shundan:</i>							
bitta farzand bilan	10522	9767	8304	11259	20406	9884	193,9
ikkita farzand bilan	5151	5031	4432	6271	8820	3669	171,2
uch va undan ortiq farzand bilan	1692	1682	1425	2015	2863	1171	169,2

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

6-jadvaldan ko'rinadiki, 2018–2022-yillar mobaynida farzandsiz nikohdan ajrashishlar soniga qaraganda farzandli ajrashishlar soni yuqori sur'atda o'sgan.

Qishloq joylardagi oilalarning ko'p bolali bo'lishi ularning oiladagi katta iqtisodiy roli bilan bog'liq. Katta oilalarda ajrashish darajasi past va tug'ilish darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. Kichik oilalarda tug'ilish darajasi past va ajrashish darajasi yuqori. Jamiyatda katta oilalarning kamayishi, kichik oilalarning ko'payishi kuzatilayotgani nikohdan ajrashishlarning oshishiga olib kelishi mumkin.

O'tgan besh yilda farzandsiz nikohdan ajrashishlar soni 11,2 foizga, o'n olti yoshgacha farzand bilan nikohdan ajrashishlar esa 84,8 foizga ortgan.

Farzandsiz nikohdan ajrashganlarning asosiy qismi (78%) nikohning dastlabki 10 yilgacha bo'lgan davrida qayd qilingan. Achinarlisi shuki, statistik ma'lumotlar bu davrgacha yashab ajrashganlar soni yuqori sur'atda o'sishda davom ettirayotganini ko'rsatadi. Jumladan, tahlil qilinayotgan davrda 1 yilgacha yashab farzandsizlik sabab nikohdan ajrashganlar soni 17,0 foizga, 1–4 yil yashab ajrashganlar 10,3 foizga, 5–9 yil yashab ajrashganlar esa 4,7 foizga o'sgan.

Nikohdan ajrashganlarning 65,8 foizida 16 yoshgacha bo'lgan farzandi bor. Oilada farzandlar soni qancha ko'p bo'lsa, ajrashish xavfi shunchalik kamayishi kerak, buning boisi farzand oilani mustahkamlovchi rishta hisoblanadi. Ammo olib borilgan tahlillar farzandi bilan nikohdan ajrashishlar ulushining yil sayin ortib borayotganligini ko'rsatdi.

Yankuniy qism. Shunday qilib, yuqoridagi demografik tendensiyalardan kelib chiqib nikohdan ajrashishlar soni ortayotganligi aniqlandi, bu esa oila institutini mustahkamlash va yoshlarni nikohga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirishni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar:

1. Nikohdan ajrashishni hisobga olish demografik o'tish davri bo'lgan umumlashgan demografik qonunni o'rganishda muhim o'rin tutadi. Demografik o'tish holatini faqat tug'ilish va o'lim nuqtayi nazaridan hisobga olish bu jarayon haqida to'liq tasavvurni bermaydi. Shuning uchun boshqa demografik ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, nikohdan ajrashishlarning bir turdan ikkinchi turga o'tish holatini ham hisobga olish kerak.

2. Qishloq joylardagi oilalarning ko'p bolali bo'lishi ularning oiladagi katta iqtisodiy roli bilan bog'liq. Katta oilalarda ajrashish darajasi past va tug'ilish darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. Kichik oilalarda tug'ilish darajasi past va ajrashish darajasi yuqori. Jamiyatda katta oilalarning kamayishi, kichik oilalarning ko'payishi kuzatilayotgani nikohdan ajrashishlarning oshishiga olib kelishi mumkin.

3. Olib borilgan tahlillar respublika va uning barcha hududlarida nikohdan ajrashishlar soni yil sayin ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, nikohdan ajrashishning eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahri, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida qayd etilgan.

4. Nikohdan ajrashish darajasi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlar sababli mamlakat hududlari bo'yicha farqlanadi. Jamiyatning rivojlanishi bilan mintaqalararo tafovutlar muayyan darajada qisqarishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, hududlardagi nikohdan ajrashish darajasini tenglashtirishga olib keladi.

5. Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda nikohdan ajrashishning eng yuqori ulushi erkaklarda 30–34 yoshni, ayollarda esa 30 yoshgachani tashkil etadi. Ayniqsa, so'nggi o'n yillikda 50 va undan yuqori yoshdagi juftliklarda ajrashish ko'rsatkichi ikki barobarga ortgan.

6. Nikohdan ajrashganlarning uchtdan bittasi yoshlar oilalar, ya'ni 1 yilgacha, 1–4 yil oldin tuzilgan er-xotinlik ittifoqi tashkil etadi. Shu bilan birga,

so'nggi besh yil mobaynida 10–14 yil oldin tuzilgan er-xotinlik ittifoqdagilarda nikohdan ajrashishlar soni yuqori sur'atda (ikki barobarga) ko'paymoqda. Jami nikohdan ajrashganlar tarkibida 20 yil va undan ortiq muddat birga yashab ajrashganlar ulushi yuqori (12,7%). O'zaro nikohda aholining qancha ko'p birga yashaganiga qaramay, ularda ajrashish hodisasi tobora ortib borayotganligi alohida tadqiqotlar amalga oshirishni taqozo etadi.

7. Respublikada tugallanmagan oliy ma'lumotli nikoh juftliklarida nikohdan ajrashish ko'rsatkichi boshqa ma'lumotga ega bo'lganlarga qaraganda yuqori sur'atda o'smoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida oila institutini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

8. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy xususiyatlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish. Bunda:

- ajrashish uchun ariza bergan oilalarni yarashtirish maqsadida beriladigan muddatni uzaytirish va bir yil alohida yashash institutini joriy etish;
- aliment majburiyatlari bilan bog'liq normalarni qayta ko'rib chiqish (miqdorini ko'paytirish);
- “shaxsiy oilaviy hayot”, “uchinchi shaxslar”, “oilaviy hayotga aralashuv” tushunchalarining aniq mezonlarini belgilash;
- nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar, jumladan, yon shajara bo'yicha yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzilishiga oid aniq normalarni kiritish;
- nikohni tugatish hamda nikohdan ajratish asoslarini aniq belgilash;
- farzandlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normalarga qo'shimchalar kiritish;
- er va xotinning mulkiy huquqlariga oid qoidalarni takomillashtirish;
- farzandlikka olish instituti bilan bog'liq normalarni takomillashtirish yuzasidan o'zgartirish kiritish.

9. Ajrashish sonini kamaytirish maqsadida:

- barcha tashkilotlar (Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, FHDY, sud, mahalla, OAV va jamoat tashkilotlari) faoliyatini muvofiqlashtirish;
- yosh oilalarni psixologik, huquqiy va boshqa yordamlarga bo'lgan ehtiyojini o'rganish va manzilli yordam ko'rsatish;
- ajrashish arafasida turgan ayol va erkaklarga alohida (mediatsiya usullarini qo'llab) seminar-treninglar, yakka suhbatlar, psixologik testlar o'tkazish. Mazkur jarayon doirasida oila muqaddasligi, er-xotin huquqlari va majburiyatlari, er va xotinning o'zaro muloqotlari to'g'risida kichik risola, uslubiy qo'llanmalarni taqdim etish choralari ko'rish;
- FHDY organlarning nikohning huquqiy mas'uliyati va oqibatlari borasidagi targ'ibotini kuchaytirish;
- korxona, tashkilot va idoralarda xodim va ishchilar, mahallalarda aholi o'rtasida dinimizdan kelib chiqib, islomda oila muqaddasligi, er-xotin vazifa va burchlari, bir-biriga sadoqati, hurmati, mehr-oqibati, farzand tarbiyasida butun oilaning ahamiyati to'g'risida davra suhbatlar o'tkazish;

ajrashish arafasida turgan ayol va erkaklarga alohida (mediatsiya usullarini qo'llab) seminar-treninglar, yakka suhbatlar, psixologik testlar o'tkazish. Mazkur jarayon doirasida oila muqaddasligi, er-xotin huquqlari va majburiyatlari, er va xotinning o'zaro muloqotlari to'g'risida kichik risola, uslubiy qo'llanmalarni taqdim etish choralari ko'rish;

– Islom dinida oila muqaddas ekanligi, er ajrashgandan so‘ng, xotini boshqa turmushga chiqqunga qadar, nafaqat bolalariga, balki xotiniga ham aliment to‘lashga majburligi haqidagi ma‘ruzalarni ommaga yetkazish;

– 18 yoshdan oshganlar uchun “Oila qurishga tayyormanmi?”, “Qanday inson bilan oila qursam ekan?” kabi mavzularda qisqa muddatli o‘quv dasturlarni ishlab chiqish va ularni maktablarning yuqori sinf o‘quvchilari, akademik litsey, professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilari va oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish;

– oilaviy zo‘ravonlik oqibatida ajrashishga kelib qolgan nizoli oilalarga oilaviy psixologlarni biriktirish;

– internet va ijtimoiy tarmoqlarda, mahalliy tele- va radiokanallarda oilaviy ajrashishning salbiy oqibatlari, bu o‘zi va farzandlari ruhiyatiga ta‘sir etishi haqida haqoniy keyslarni keltirgan holda, ko‘rsatuvlar tayyorlash.

10. FHDY organlari bo‘limlariga farzandsizlik tufayli nikohdan ajrashish uchun ariza bergan er-xotinlarni tibbiyotning zamonaviy usullari yordamida davolanishga yo‘naltirib, oilani saqlab qolish choralarini ko‘rish. Oilada turg‘un bepustlik aniqlanganda EKO muolajalaridan oqilona foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фитрат А. “Оила ёки оила бошқариш тартиблари” асари.
2. Вишневский А.Г. Избранные демографические труды. Т.1. – Москва: Наука, 2005. – С. 120.
3. Тышкевич В.П. Основные направления исследований семейного домохозяйства современной социальной рыночной экономике на примере Германии. – Москва: МАКС-Пресс, 2009.
4. Волков А.Г. Семья – объект демографии. – Москва: Мысль, 1986.
5. Roussel L. La Familleincertaine. Paris. Editions Odibe Jacob, 1989.
6. Эволюция семьи в Европе: восток-запад. – Москва: НИСП, 2010.
7. Тышкевич В.П. Основные направления исследований семейного домохозяйства в современной социальной рыночной экономике на примере Германии. – Москва: МАКС Пресс, 2009.
8. Becker G.S. (1973). *A Theory of Marriage: Part I. Journal of Political Economy*, University of Chicago Press, vol. 81(4), pp.
9. Becker, G. S., Landers, E. M., & Michael, R. T. (1977). “An Economic Analysis of Martial Instability” *Journal of Political Economy*, 85(6).